

YURAK QON – TOMIR KASALLIGI MIOKARD INFARKTINI XALQ TABOBATIDA DAVOLASH USULLARI

Oraztach N. Pirmuhammedova

Andijon davlat tibbiyot inistituti

Farmatsiya fakulteti

1- kurs talabasi

Komiljon T. Ubaydullayev

Andilon davlat tibbiyot inistituti

Tibbiy kimyo kafedrası

katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurak qon – tomir miokard kasalligi va uni zamonaviy tibbiyotda va xalq tabobati usulida davolash usullari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Yurak qon – tomir, miokard infarkti, allergik, infeksiyon-allergik, qandli diabet

Аннотация: В данной статье рассмотрены заболевания сердечно-сосудистой системы и миокарда и методы их лечения в современной и народной медицине.

Ключевые слова: сердечно-сосудистые заболевания, инфаркт миокарда, аллергический, инфекционно-аллергический, сахарный диабет.

Abstract: In this article, cardiovascular and myocardial disease and its treatment methods in modern medicine and folk medicine are considered.

Key words: Cardiovascular, myocardial infarction, allergic, infectious-allergic, diabetes

Kirish. Miokard infarkti (yurak xuruji deb ham ataladi) yurak mushagi ishemiyasining o'tkir davri bo'lib, u qon ta'minoti buzilganida qonning yurakka oqishining to'xtashi bilan tasiflanadi[1].

Bu kasallik bilan 50-60 yoshdagi kishilar kasalanadi. Ayniqsa kasallikda ayollarga nisbata erkaklar ko'p chalinadi. Miokard infarkti asosan yurak sohasida bo'ladigan qattiq og'riq bilan boshlanadi[2].

Miokard infarkti – o'tkir holat, yurak ishemik kasalligining klinik shakli, to'liq yoki qisman qon yetishmovchiligi natijasida yurak muskul to'qimasining (miokard) nekrozi (o'limi) tufayli yuzaga keladi[3].

Epidemiologiyasi. Miokard infarkti ko'pincha 50 yoshdan oshgan erkaklarda uchraydi[4].

Bu erkaklarda aterosklerozning erta rivojlanishi bilan bog'liq. Erkaklar ayollarga nisbatan miokard infarktiga ko'p chalinadilar. Ayollar erkaklarga nisbat o'ra hisobda 10-15 yil kech kasal bo'ladilar[1].

Kasallikning kelib chiqish sabablari: Statistika malumotlarga ko'ra hozirgi vaqtda miokard bilan kasalanishning doimiy o'sishi kuzatilyapti, shu bilan birga ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, infeksiya, allergik, allergik va boshqa miokarditlar hisobiga yuz beryapti. Allergik kelib chiqadigan miokardit bilan kasallanishning ayrim preparatlarni (antibiotiklar, oqsil preparatlari va boshqalar) keng va asossiz qo'llanish, qishloq xo'jaligida ekinlarga har hil zaxarli ximikatlar bilan ishlov berishda gigiyena normalariga amal qilmaslik, aktiv immunlash va tez – tez reimmunlash, sanoatning jadal rivojlanib borishi, urbanizatsiya, regionda ekologik sharoitning yomonlashishi bilan bog'liq[5].

Chekish. Surunkali nikoti bilan zaharlanish natijasida toj arteriyalar toryib ketadi, bu esa miokardda kislorod yetishmasligiga olib keladi.

Semizlik va gipodinamiya: yog' almashuvi buzilganda aterosklerozning rivojlanishi tezlashadi, qandli diabet kasalligi xavfli ortadi.

Qandli diabet bilan og'riqan bemorlarda miokard infarkti rivojlanishi xavfli yuqori, chunki qondagi yuqori qand miqdori tomir devorlari va gemoglobinga salbiy ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida uning transport (kislородni tashish) qobiliyati yomonlashadi[6].

Miokard infarkti belgilari. Kasallikning asosiy belgisi bu kuchli og'irikdir. Miokard infarkti bilan kechadigan og'iriq ko'krak orqasida joylashgan. Og'iriq chap qo'lga, pastki jag'ga, kuraklar orasiga tarqalishi mumkin[4].

Miokard kasalligini davolash usullari. Xalq tabobatida Miokard kasalligini davolashda tabiiy giyohlardan, o'simliklardan foydalanishimiz kerak. Isiriqni maydalab, elakdan o'tkazib, kunjut moyidan ko'shib istemol qilish yurakni baquvvat qiladi. Qattiq non istemol qilish yurak zaifligiga shifo bo'ladi. Namatak, oddiy chetan, oddiy bodrezak mevalari, maiz va bargdan teng miqdorda aralashtiriladi. Undan bir stakani ustiga bir litr qaynoq suv kuyib, bir kecha termosda damlab qoyiladi. Kun davomida choy o'rniga ichiladi. Bu damlamani uzoq vaqt ichish mumkin. 100 gram bugdoy ustiga suv quyib, issiq joyda qoyiladi. Maysasi 1mm uzunlikda unib chiqqandan keyin go'sht qiymalagichdan o'tkazib, unga o'simlik moyi, asal va mayiz ko'shib, naxorda istemol qilinadi[7].

Miokard infarktini oldini olish juda oddiy: siz dietada yog'li ovqatlar va qizarilib pishgan ovqatlar miqdorini cheklashingiz, chekishni to'xtatishingiz va spirtli ichimliklar miqdorini kamaytirishingiz, xolesterin va qon shakarini nazorat qilishingiz kerak. Jismoniy va hissiy jihatdan ortiqcha stressdan qochish kerak[3].

Xulosa. Bugungi kunda miokard infarktini davolshning yangi chora tadbirlarni ishlab chiqilmoqda. Yallig'lanish, stress, angiogenezga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan genlari modulyatsiya qilish strategiyalari kabi biotexnologik innovatsiyalar yaratilmoqda va hayvonlarda tajriba orqali sinab ko'rilmogda. Biroq bu juda katta daromad talab etadi. Xulosa qilib aytganda, miokard infarktini oldini olish uchun 45 yoshdan katta insonlarda yog' almashuvi metabolizimni va qondagi xolesterol miqdorini nazorat qilish lozim[8].

Foydalangan adabiyotlar:

1. Med24.uz haqida: Miokard infarkti – sabablari, belgilari, diagnostika va davolsh
2. Uz.m.wikipedia.org: Miokard infarkti
3. Gmed.uz Gatling Med haqida: Miokard infarkti – kasallik belgilari, diagnostika va davolash
4. Baxodirov.K. Yo'ldoshev.K “ Ichki kasalliklar tashxisi va klinikasi” Toshkent Abu Ali ibn Sino nimidagi tibbiyot nasiryoti. 1996 207 b.
5. Kamolov. N. M. Kuyliyev. M.U. “ Ichki kasalliklar” Toshkent Abu Ali ibn Sino nomidagi nashiryot 1991. 95 b.
6. My.Medic.uz: Miokard infarkti – kasallik belgilari, diagnostika va davolsh
7. Askarov.I.R “Tabobat qomusi” Toshkent Navoiy ko'chasi 69uy. 2019 151 b. 595 b. 1020 b.
8. Ergashev.J Tohirova.J “ Miokard infarktini kelib chiqish sabablari va davolash chora tadbirlari” Iqro jurnali 2023 yil 250 b.